Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



KOMPANIYALARNING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA XORIJ TAJIRIBASI

Ibragimov Mansur Axmedovich

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil doktoranti

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz korxona va kompaniyalarining tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish amaliyotiga tijorat banklarining kafolatiga asoslangan forfeyting kreditlarini joriy etish taklifi va tayyor mahsulotlar eksportini sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari asoslangan. Respublikamiz tijorat banklari tomonidan kompaniyalarning import operatsiyalari bo'yicha ochiladigan qoplanmagan va tasdiqlanmaydigan hujjatlashtirilgan akkreditivlar hajmini oshirishning maqsadga muvofiqligi ushbu ilimiy makalada asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: eksport, import, kredit, hujjatlashtirilgan akkreditiv, inkasso, bank kafolati, subsidiya, valyuta kursi, korxona, kompaniya, tijorat banklar, tashqi savdo, moliyalashtirish.

Abstract: This scientific article presents proposals on the introduction into practice of financing foreign trade activities of enterprises and companies in our country of forfeiting loans based on guarantees from commercial banks and ways to improve export insurance of finished products. It substantiates the expediency of increasing the volume of uncovered and unapproved documentary letters of credit opened by commercial banks of our Republic for import operations of companies.

Key words: export, import, credit, documented letter of credit, collection, bank guarantee, subsidy, exchange rate, company, commercial banks, foreign trade, financing.

Аннотация: В данной научной статье предложены предложения о внедрении в практику финансирования внешнеторговой деятельности предприятий и компаний нашей страны форфейтинговых кредитов, основанных на гарантии коммерческих банков, и путей совершенствования экспортного страхования готовой продукции. В ней обоснована целесообразность увеличения объема непокрытых и неутвержденных документально аккредитивов, открытых коммерческими банками нашей республики по импортным операциям компаний.

Ключевые слова: экспорт, импорт, кредит, документированный аккредитив, инкассо, банковская гарантия, субсидия, обменный курс, компания, коммерческие банки, внешняя торговля, финансирование.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish, tashqi bozorlar va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb etish, xususi sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish, avtotransport vositalari eksportini 3 baravarga oshirish va 1 milliard AQSh dollariga yetkazish, turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan dasturiy taminotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6500 tadan 15000 taga yetkazish mamlakatning eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan¹. Bu esa, kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini rivojlantirishni taqozo etadi. O'z navbatida, kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish bevosita ushbu faoliyatni moliyalashtirishning samarali tizimini shakllantirishga bog'liq.

Ayni vaqtda, respublikamiz kompaniyalarining tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish tizimida bir qator kamchiliklar mavjud. Jumladan, kompaniyalarning import operatsiyalari bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning asosiy qismi qoplangan akkreditivlarning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bundan tashqari, xorijdan eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish maqsadida jalb qilingan xalqar kreditlarning asosiy qismini suzuvchi stavkada olingan kreditlar tashkil etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida//www.lex.uz.



Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish masalasi xorijlik va o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan hamda tegishli xulosalar, tavsiyalar shakllantirilgan.

O. Xershi tomonidan yaratilgan "ochiq ofertalar" nazariyasiga ko'ra, akkreditivda ko'rsatilgan benefitsiarga to'lanishi va'da qilingan summa oferta hisoblanadi va u akseptlangunga qadar ochiq qoladi².

A. Shamraevning fikriga ko'ra, ushbu nazariyada akkreditivlarning chaqirib olinmaslik prinsipi o'z ifodasini topmagan³. Bizning fikrimizcha, "ochiq ofertalar" nazariyasi O'zbekiston Respublikasida banklar tomonidan tashqi savdoga hisob-kitob xizmati ko'rsatish amaliyotining zamonaviy holati uchun amaliy ahamiyatga ega emas. Chunki respublikamizda asosan ta'minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlardan foydalanilmoqda. Bunda benefitsiarga to'lov summasini va'da qilishga zaruriyat yo'q. Buning sababi shundaki, ta'minlangan akkreditivlarda to'lov summasi alohida hisobraqamida deponent qilinadi.

Prof. L. Krasavinaning fikriga ko'ra, xalqaro amaliyotda valyuta opsionlarining ikki standarti mavjud bo'lib, ushbu standartlar risk darajasiga ko'ra bir-biridan keskin farqlanadi. Valyuta opsionlarining birinchi standarti yevropa standarti deb ataladi va bu opsionlar o'z egasiga faqat shartnoma muddati tugagandan so'ng opsiondan foydalanish huquqini beradi. Valyuta opsionlarining ikkinchi standarti esa, amerika standarti deyiladi va mazkur opsionlar o'z egasiga opsion shartnomasi muddatining istalgan vaqtida opsiondan foydalanish huquqini beradi. Demak, valyuta opsionlarining amerika standartida risk darajasi yevropa standartiga nisbatan yuqori hisoblanadi⁴.

L. Krasavinaning mazkur xulosasi O'zbekiston bank amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, hozirga qadar respublikamiz bank amaliyotida valyuta opsionlari va valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar mavjud emas.

K. Chekmarevning fikriga ko'ra, muddatli valyuta bozorining instrumentlari moliyaviy risklarni boshqarish tizimida muhim o'rin tutadi va XX asrning 90-yillarining oxiri 2000-yillarning boshida derivativ instrumentlari bozorining yuqori sur'atlarda rivojlanishining quyidagi sabablarini asoslab berdi:

- derivativ instrumentlari diapazonining sezilarli darajada kengayganligi;
- kredit derivativlari va qarz majburiyatlari bilan ta'minlangan hosilaviy qimmatli qog'ozlar kabi istiqbolli yangi mahsulotlar savdosi hajmining oshganligi;
- derivativlardan informatsion, sug'urtaviy va boshqa risklarni boshqarishda foydalanishning yo'lga qo'yilganligi;
- muddatli valyuta bozorlariga chakana investorlarning kirib kelishining boshlanganligi;
- aksidorlik kapitallari boshqarishni takomillashtirish zaruriyatini yuzaga kelganligi;
- derivativlar bozorining yuqori darajada to'planishi (operatsiyalarning asosiy qismini 10-12 diler qo'lida to'planib qolishi);
- derivativlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning daromadlilik darajasining oshib borganligi⁵.

A. Gloriov va D. Mixaylovlar amalga oshirgan tahlillarning natijalari ko'rsatdiki, tashqi savdoda mavjud bo'lgan iqtisodiy risklarning asosiy turlari quyidagilardir:

- tijorat risklari;
- ishlab chiqarish risklari;
- operatsion risklar;
- ikki tomonlama hamkorlik riski;
- imzo riski;
- kredit riski;
- valyuta riski;
- defolt riski;
- o'tkazma riski;
- moliyaviy risklar;
- yuridik risklar⁶.

2 Hershey O. Letters of Credit. – Harward Law Review. – Vol. 32. – P. 1 (1918).

3 Шамраев А.В. Регулирование документарного аккредитива в праве США // Деньги и кредит. – Москва, 2001. – №6. – С. 52.

4 Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные отношения. – М. ФиС, 2013. – С. 173-176.

5 Чекарчев К.С. Инструменты срочного рынка и управление финансовыми рисками//Банковское дело. – Москва, 2007. –№8. – С. 39-40.

6 Глориев А.Г., Михайлов Д.М. Внешнеторговое финансирование и гарантийный бизнес. –М.: Юрайт, 2011. –С.205-206.



Ammo mualliflar foiz riskining mavjudligiga e'tibor qaratmaganlar. Holbuki, tashqi savdoni banklar tomonidan kreditlashda foiz riski asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki, tijorat banklari tashqi savdoni kreditlashda har doim suzuvchi stavkada kredit berishga harakat qilishadi, mijozlar esa, har doim qat'iy belgilangan stavkada kredit olishga harakat qilishadi. Buning sababi shundaki, kredit suzuvchi stavkada berilganda, kreditning bozor bahosini o'zgarishidan qat'iy nazar, bank oladigan daromad o'zgarmasdan qoladi. Mijozlar esa, kreditning bozor bahosini oshib ketishidan cho'chishadi va shu sababli, o'zgarmaydigan stavkada kredit olishga harakat qilishadi.

A.Smirnovning xulosasiga ko'ra, tijorat banklarining eksportni kreditlash amaliyoti davlat tomonidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi kerak. Bunda moliyaviy qo'llab-quvvatlashning eksport kreditlarini davlat tomonidan kafolatlash va foiz stavkalarini bonifikatsiya qilish shakllaridan foydalanish lozim⁷.

A.Smirnovning ushbu xulosasi O'zbekiston bank amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, birinchidan, banklarning eksport kreditini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash amaliyoti mavjud emas; ikkinchidan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish jarayoni O'zagroeksportbank tomonidan kreditlanadi.

J. Keynsning fikriga ko'ra, valyuta fyuchersi bozorini beqaror valyuta kursi hukm surayotgan mamlakatlarda tashkil etish lozim. Valyutalarning beqaror bo'lishida eng avvalo mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy tadbirlarga ishonchning yo'qligidadir⁸.

G.Mokrov eksportni spetsifik subsidiyalashning uch shaklini ajratib ko'rsatadi:

1. To'g'ridan-to'g'ri beriladigan spetsifik subsidiyalar.

Mazkur subsidiyalar eksportchi davlatning byudjetidan eksport qilinadigan tovarni ishlab chiqarishga, eksport qilishga yoki yetkazib berishga beriladi.

2. Bilvosita spetsifik subsidiyalar.

Ushbu subsidiyalar eksport qiluvchi kompaniyalarga soliqlar, boj to'lovlari va davlat byudjetiga ajratmalar miqdorini kamaytirish shaklida beriladi.

3. Kombinatsiyalashgan spetsifik subsidiyalar.

Mazkur subsidiyalar bir vaqtning o'zida kreditlarni moliyalashtirish hamda tovarlarni ishlab chiqarishga, eksport qilishga yoki yetkazib berishga beriladi⁹.

V. Axramovich va R. Yanbyxlarning xulosasiga ko'ra, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi tovarlari bilan amalga oshirilayotgan xalqaro savdoning umumiy hajmini yuqori sur'atlarda o'sishi mintaqaviy hamjamiyatlar doirasida kuzatilmoqda va 70 foizga yaqinni tashkil qilmoqda. Shu sababli, ular qishloq xo'jaligi mahsulotlari xalqaro savdosini moliyalashtirishda asosiy e'tiborni mintaqaviy hamjamiyatlar doirasida amalga oshiriladigan xalqaro savdoni moliyalashtirishga qaratish lozim, deb hisoblashadi¹⁰.

D. Ternovskiyning xulosasiga ko'ra, g'allani eksport qilishda tashish xarajatlarini subsidiyalash g'alla yetishtiruvchilarning daromadlarini qo'llab-quvvatlash nuqtai-nazaridan natijalilikni ta'minlash masalasini hal qilmaydi. Chunki, g'allaning narxini pasayishi uni yetishtiruvchilarning daromad darajasini pasaytirib yuboradi. Masalan, 2017-yilda g'allaning hosildorligi juda yuqori bo'lganligi sababli Sibirda g'allaning narxi ishlab chiqarish tannarxidan past bo'ldi¹¹.

Bir guruh xorijlik iqtisodchi olimlarning xulosasiga ko'ra, qishloq xo'jaligi eksportini kreditlash samardorligini ta'minlashning zaruriy sharti bo'lib, tijorat banklari tomonidan eksportni moliyalashtirish maqsadida berilgan kreditlarning foizini bir qismini davlat tomonidan qoplab berilishi (bonifikatsiya) hisoblanadi¹².

Mazkur xulosa taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyoti uchun ham, rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, fermerlarga va qishloq xo'jaligi korxonalariga tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar, shu jumladan, eksport kreditlarining foizini bir qismi davlat tomonidan bonifikatsiya qilinadi. Jumladan, ushbu bonifikatsiyalash amaliyoti Rossiya Federatsiyasida 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab joriy etildi¹³.

7 Смирнов А.Л. Технологии экспортного финансирования//Банковское дело. –Москва, 2012. –№4. –С. 60-61.

8 Кейнс Дж. М. Трактат о денежной реформе. М.: Дело, 1993. – С. 162

9 Мокров Г.Г. Евразийский экономический союз: инструменты защиты внутреннего рынка от недобросовестной конкуренции. – М.: Проспект, 2018. – С. 57.

10 Ахрамович В.С. Механизмы адаптации внешнеторговой политики в аграрной сфере отдельных стран и сообществ к условиям ВТО//Экономический бюллетень Национального исследовательского института Министерства экономики Республики Беларусь. – Минск, 2015. – №5. – С. 15-25.; Янбых Р.Г. Современные тренды агропродовольственной торговли и ее перспективы в Евразийского экономического союза//Экономика сельского хозяйства России. –Москва, 2011. –№1. – С. 86-91.

11 Терновский Д.С. Экспортоориентированная модель сельского хозяйства: плюсы и минусы//Мониторинг экономической ситуации в России. –Москва, 2020. – №24. –С. 8-12.

12 З. Короткова С. Н., Ткач Ю. Б. Кредитование как одно из направлений финансирования сельского хозяйства в условиях членства в ВТО и санкций//Материалы международной научно-практической конференции "Аюшие чтения. Финансово-кредитная система: опыт, проблемы, инновации" и др. – Иркутск: НИЦ "Апробация", 2016. –С. 124–130.; Шкарупа Е. А., Переходов П. П. Кредитование сельского хозяйства: особенности, проблемы, тенденции развития//Региональная экономика: теория и практика. –2015. – № 44. – С. 52–56.; Scott J.A., Dinkelberg W.C., Dennis W.J. Credit, Banks and Small Business – the New Century – Washington: NFIB Research Foundation, 2003. – 96 p.

13 Бондаренко В.С., Шишкина Д.А. Необходимость и направлении государственной финансовой поддержки сельхозпредприятий российского АПК//Вестник СГСЭУ. –Саратов, 2018. –№ 5. –С. 131-135.



J. Sinkining fikriga ko'ra, agar bank ma'lum sabablarga ko'ra balansni ichida xedjirlashni amalga oshira olmasa, unda xedjirlash maqsadida balansdan tashqari usullardan, ya'ni valyutadagi hosilaviy instrumentlardan – fyuchers, forvard, opsiyondan foydalanishi mumkin¹⁴.

J. Sinkining xulosasidan ko'rinadiki, xorijiy valyutadagi hosilaviy vositalar tijorat banklari faoliyatidagi valyuta riskini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Ammo, O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida valyutaviy hosilaviy instrumentlar bo'lgan valyuta opsiylari va valyuta fyucherslarining mavjud emasligi ularning valyuta riskini boshqarish imkoniyatini cheklaydi.

T. Bobakulov va U. Abdullaevning xulosasiga ko'ra, bank amaliyotida mutlaqo amalga oshirilmagan yoki muddatida amalga oshirilmagan forvard operatsiyalarining mavjudligi tabiiy holat hisoblanadi. Chunki forvard shartnomasida ishtirok etuvchi tomonlardan biri shartnoma muddati tugagan paytda to'lovga noqobil bo'lib qolishi mumkin. Bunga yorqin misol qilib, Rossiya Federatsiyasida 1997-yilda yuz bergan moliyaviy inqirozni keltirish mumkin. Moliyaviy inqiroz natijasida Rossiyaning bir qator tijorat banklari xorijiy banklar oldidagi forvard shartnomalari bo'yicha majburiyatlarini bajara olmadilar. Chunki inqiroz natijasida ko'plab tijorat banklarida likvidlilik muammosi yuzaga keldi va buning oqibatida banklar balansining nolikvidliliigi yuz berdi¹⁵.

N. Jumaevning fikriga ko'ra, respublikamizda so'mdagi depozitlar va kreditlarning bozor stavkalarining beqarorligi saqlanib qolmoqda. Bu esa, forvard kurslarining barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Depozitlar va kreditlarning foiz stavkalari ustama va diskontning darajasini belgilovchi omil hisoblanadi. Ustama va diskont esa, forvard kursini spot kursidan farqlantiruvchi yagona omil hisoblanadi¹⁶.

Haqiqatdan ham, forvard operatsiyalarida diskont va ustamani aniqlaydigan yagona omil bo'lib, bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasi bilan baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasi o'rtasidagi farq hisoblanadi.

Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilish natijalari ko'rsatdiki:

- akkreditivda ko'rsatilgan benefitsiarga to'lanishi va'da qilingan summa oferta hisoblanadi va u akseptlangunga qadar ochiq qoladi;
- xalqaro amaliyotda valyuta opsiylarining ikki standarti mavjud bo'lib, ushbu standartlar risk darajasiga ko'ra bir-biridan keskin farqlanadi;
- muddatli valyuta bozorining instrumentlari moliyaviy risklarni boshqarish tizimida muhim o'rin tutadi;
- tashqi savdoda mavjud bo'lgan iqtisodiy risklarning asosiy turlari bo'lib, tijorat risklari, ishlab chiqarish risklari, operatsion risklar, ikki tomonlama hamkorlik riski, imzo riski, kredit riski, valyuta riski, defolt riski, o'tkazma riski, moliyaviy risklar va yuridik risklar hisoblanadi;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi Farmoni. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida//www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-apreldagi PF-97-sonli "Tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni//www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi PF-5177-sonli "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni//O'zbekistonRespublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – №36. – 945-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-maydagi PF-5057-sonli "Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarning eksport qilinishi va raqobatdoshligini ta'minlashni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – №22. – 26-27-b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi PQ-4406-sonli "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2019-y., 07/19/4406/3496-son.
6. Jumaev N.X. O'zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. T. "Fan va texnologiya", 2007-y. – 286 b.
7. Ismailov A.A. O'zbekiston Respublikasi pul tizimini mustahkamlashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent: BMA, 2016. – 81 b.
8. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. – М.: Гелиос АРВ, 1999. – 352 с.
9. Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные
10. Tashqi iqtisodiy faoliyat//www.stat.uz
11. Ichki valyuta bozorida operatsiyalar sharhi//www.cbu.uz

14 Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблицер, 2017. – С. 807.

15 Bobakulov T.I., Abdullaev U.A. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik. – Toshkent: Sano-standart, 2014–B. 107-108.

16 Jumaev N.X. O'zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – B. 24.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.